

munosabati bilan iqlim tavakkalchiligini boshqarish sohasidagi faoliyat tamoyillari va yo'nalishlarini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

barqaror rivojlanish maqsadi 7 (keyingi o'rinlarda — BRM 7) — barcha iste'molchilar uchun arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan maqsad;

barqaror rivojlanish maqsadi 13 (keyingi o'rinlarda - BRM 13) — iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlariga qarshi kurashish, moslashuvchanlikni oshirish choralari ko'rishga qaratilgan maqsad;

Parij kelishuvi — Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi doirasida atmosferadagi issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish choralari tartibga soluvchi kelishuv;

iqlim tavakkalchiliklari (xavflari) — iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy xavf va salbiy ta'sirlar majmui;

asosiy iqlim tavakkalchiliklari — bank faoliyatiga iqlim o'zgarishi natijasida jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim tabiiy va o'tish iqlim tavakkalchiliklari (xavflari);

tabiiy tavakkalchiliklar — tabiiy ofatlar natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararlar;

o'tish tavakkalchiliklari — yangi qonunchilik, texnologik yangilanishlar, bozor tendensiyalari va siyosiy qarorlar tufayli yuzaga keladigan moliyaviy va operatsion xavflar;

iqlim tavakkalchiliklarini boshqarish — iqlim tavakkalchiliklarining ta'sirini aniqlash, baholash, monitoring qilish va minimallashtirish jarayon;

iqlim imkoniyatlari — iqlim o'zgarishi va barqaror, past uglerodli iqtisodiyotga o'tish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial imkoniyatlar;

iqlim ssenariylari — iqlim o'zgarishi va uning iqtisodiyotga ta'sirini oldindan baholash uchun qo'llaniladigan modellashtirish usuli;

sektor ta'sirchanligi — iqlim o'zgarishining turli iqtisodiy sektorlarga salbiy ta'sir darajasi.

2. Ushbu Siyosat Bankning iqlim tavakkalchiliklari va imkoniyatlari sohasidagi munosabatini ifodalovchi asosiy hujjat bo'lib, unda quyidagilar ko'zda tutilgan:

iqlim bo'yicha uzoq muddatli maqsad va vazifalarni belgilash;

Bank duch kelishi mumkin bo'lgan asosiy iqlim tavakkalchiliklarini aniq belgilash;

tabiiy va o'tish tavakkalchiliklarni boshqarish orqali Bank uchun barqaror biznes modelini saqlab qolish;

tabiiy va o'tish tavakkalchilik tizimini, tuzilmasini va boshqaruvini tashkil etish;

Bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi iqlim tavakkalchiligiga qarshi himoya liniyalarini tashkil etish;

iqlim tavakkalchiliklari sohasida hisobot berishning asosiy prinsiplarini belgilash.

3. Ushbu Siyosat Bankning tarkibiy bo'linmalarida iqlim tavakkalchiliklari va imkoniyatlari sohasidagi faoliyatini tartibga soladi hamda uyg'unlashtiradi.